

DO'PPIGA LOYIQ BOSH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7878238>

Otayeva Dinora

Urganch davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Dardli, samimiy tiniq she'rlari bilan qisqa vaqt ichida qo'shiqchilikning dimiqib ketgan havosini tozalashga muvaffaq bo'lgan zuvalasi pishiq nazm ahlining yetuk vakili Muhammad Yusuf o'z ijodida nimaiki yozgan bo'lsa, chin dildan mehr va muhabbat bilan aytgan edi. Balkim shuning uchun ham shoir ijodi hali hanuz sevib mutolaa qilinar? Mazkur maqolada shoirning hayot nafasi namoyon bo'lgan she'rlariga va qisqa ammo mazmunli umr yo'liga nazar tashlaymiz.*

Kalit so'zlar: *Muhammad Yusuf, "Mahbub ul-qulub", Ozod Sharafiddinov, Islom Abdug'aniyevich Karimov, Alisher Navoiy, Muhammad Ali, "Bulbulga bir gapim bor".*

"Men hozir yerni ushlab to'xtaman. Nega tinmay aylanaveradi u.

Nahot zerikmagan bo'lsa?

Yerning oxiri qayda? Tasavvuri-chi?

Aniq raqamlarni jinim suymaydi. Uchburchaklar tasavvur qafaslaridir".

(Muhammad Yusuf).

Xazrat Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining "Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari" faslida sohibjamol shoirlariga baho berar ekan: "... olamda zavq-u hol ahli bular latoyifi bila masrurdurlar va bular ma'rifatparvar bila xuzur qilurlar" deya e'tirof etdilar. Buyuk bobomizning bu ta'riflariga "zavqu hol ahli" qalbidan allaqachon joy olgan bulbulzabon shoirimiz Muhammad Yusufning ijodi ham bevosita taaalluqlidir.

Nechun qulluq qilmay Andijonga men-

Shu yurtda tug'ildim, shu yurtda o'sdim.

Agar do'stim bo'lsa, bitta u do'stim-

Nechun qulluq qilmay Andijonga men!.. deb o'zi tug'ilib o'sgan yurt dan faxrlagan Muhammad Yusuf ilk she'rlari bilanoq katta ustozlarning nazariga tushdi. Ularning diqqat e'tiborida bo'lgan "osmonqalb shoir" deya nom olgan shogirdning ham shogirdlari qisqa muddatda ko'paydi. Shoir she'riyatini mukammal vujud: unda har bir a'zo asab tolasi, qon qatnasi, kipriktan tirnoqqacha aniq vazifani bajardi.

Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov shoir haqida "Muhammadjon noyob iste'dod egasi, odamlarga mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson edi. Uning yorqin xotirasi barchamizning qalbimizda doimo saqlanadi" degan. Ma'lumot o'rniga aytishim mumkinki, birinchi prezidentimiz Ulug'bek haqida yozilgan she'rini eshitib shoirning favqulodda va nodir qobiliyatini payqagan. Muhammad Yusuf she'riyatga misoli bir chaqinday kirib o'z ijodi bilan tomirimizdagi qonlarni

jo'shishiga sababchi bo'ldi. Adabiyotimiz tarixida hali hech kim uningdek tez nom chiqarmagan.

Bir qo'lda belanchak, bir qo'lda Qur'on,
Bir yelkada ketmon, birida iymon.
Barchaga barobar oftobsimon,
Yashasin olam deb yashagan o'zbek.

U pokiza inson bo'lib, she'rlari bilan odamlarni o'ylatgan, kuldurgan, yig'latgan. Topgan tutganini odamlar ustidan sochgan "saxiylik" timsoli edi. Ijodkorning keyingi faoliyati bevosita poytaxtimiz azim Toahkent shahri bilan bog'lanadi. Aynan o'sha yerda "shoir" unvoniga erishdi va she'rlaridan birida

Meni shoir qilgan qumsuvoq,
Bolaxonalaring bor bo'lsin deya madh etadi.

Muhammad Yusuf Alloh bergan qobilyat egasi edi. Ko'klamoyim ko'kingdan ber bir chimdim" she'r misralarini esladigizmi? Aynan hofizlarimiz tomonidan kuylangan va xalqning yuragidan joy olgan mazkur she'r bor yo'g'i 10-15 daqiqada dunyoga kelgan va Ozod Sharafiddinovga bag'ishlangan. Ba'zi kimlardir deydilarki, qisqa fursatda yuzaga kelgan asar yoki she'rning umri qisqa bo'ladi deb. Yo'q, sevimli shoirimiz Halima Xudoyberdiyeva aytganlar: " shunchaki yozmoq shoirga o'lim"deb Muhammad Yusuf esa she'rlariga shunchaki qaramagan, unga bir farzand misol qaragan adabiyotga ba'zi qorin g'amida tutab kirgan shoir va yozuvchilardan farqli ravishda shu soha ravnaqi uchun mashaqaat chekkan adabiyot darg'alarimizdan biri hisoblanadi.

Shoir shunday ko'pki, ularga yer tor,
Hammasi mashhur va Hammasi nomdor.

Lek shular ichida Xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimnikiga o'xshamagan misralarda ta'riflagan Muhammad Yusuf yagonadir. Benihoya ko'p ijod ahli orasidan Muhammad Yusufning qalam sehri o'zgachadir. Uning oson yoziladiganga o'xshab ko'rinadigan misralari muxlislarini yig'latadi, kulduradi, o'z og'ushiga tortadi. Odamlar shoir tirik vaqti ham hatto hozirgi kunlarda ham uning she'rlarini, dostonlarini sevib mutolaa qildilar. Ikkinchi umr deb atalmush hayotida ijodkor har olgan nafasimizda biz bilan birga.

Boshiga ish tushganda sherigin hatto ,
Tashlab ketmas ekan quzg'unlar.

Biz mustaqil O'zbekiston diyoring hur va ozod farzandimiz. Lekin shunday vaziyatlar bo'ladiki, kimnidir kimga suyanadigan, yordami tegadigan, suyanch tog' bo'ladigan vaqtlari albatta bo'ladi. Bir kun shoir uyga kelayotganida daraxt shohida qarg'aga ko'zi tushadi, u yaralangan bo'lib, yordam berish uchun daraxtning uchiga chiqish kerak bo'ladi. Keyin bir quzg'un kelib sherigini olib ketadi va u endi yo'q bo'ladi. Muhammad Yusuf she'riyatining hususiyatlaridan biri mavzuni o'ylab chiqarmaydi, balki hayotdan oladi. Xalqimiz kechirimli, kengfe'l, tanti va jo'mardligi bilan ham ajralib turadi

Yomon she'r yoqsang ham, betingdan o'pib,

Kam bo'lma bolam, deb yashaydi o'zbek... misralari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Yuragining "Olampanohi" bo'lgan Vatan haqida jo'sh urib yozish shoirning ijodida bo'y cho'zib turgan mushtarak obrazdir. U tom ma'noda Vatan kuychisi, Vatanga muhabbat, Vatan uchun fido bo'lmoqqa tayyor turish, o'ziga hech narsa tilamaslik, buyuk sadoqat, ixlosdan iborat.

Do'stlar og'iz to'ldirib Vatan

Deya olmoq, o'zi baxt ekan!..

deya aytadi shoir ijod na'munalarida. Bi yorug' olamning jannatlari borligini, ko'pligini aytib, ammo Vatandan bo'lagi bari minnat ekanini ta'kidlaydi. Bunda teran falsafa mijassam. Vatan- "toy qoqilib, ot bo'lguvchi yaylovchidir" deydi. O'zbek, O'zbekiston, Vatan kabi she'rlari bilan bir qatorda jadid adabiyoti vakillari, adabiyotning porloq yukduzlari haqida she'rlar ham yozdi. "Nido" she'rida Usmon Nosirni istiqloq o'g'luni sifatida gavdalantiradi. Yana shoirning bisotida Otabek, Kumush, Zaynab singari adabiy qahramonlar haqida yozilgan she'rlar ham talaygina. Bular tufayli Cho'lpon, Usmon Nosir bevosita yodga tushadi.

Uchib keldim uyimga omon,

Beshyog'ochda gullabdi o'rik...

Toshkentga qiz berma, Marg'ilon-

Qodiriy yo'q, Zaynablar tirik.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi Muhammad Ali o'z xotiralarida yozishicha, " O'tgan asrning 80-yillarida bir mushoirada qorachadan kelgan yosh yigitcha taniqli shoirlar qatorida she'r o'qib, shu onda "uloq"ni olib ketgan. Uning she'ri do'ppiga bag'ishlanardi. "Bosh qolmadi do'ppiga loyiq"satrini keltirganda zal olqishlardan to'ldi. O'zgacha ritmik nutq va nazokat bilan o'qilgan, chuqur ramziy ma'noga ega bu misralar o'zbekni ulug'liovchi, g'ururimizni yuksakka ko'taruvchi timsol sifatida jaranglaydi. O'z she'ridan aytish mumkinki, Muhammad Yusuf xalqimizning " do'ppiga loyiq bosh"laridan bo'ldi".

U shu tuproqda tug'ildi, shu tuproqni sevdi, shu tuproqqa jonini fido qildi. Andijonning tanti va jo'mard o'g'luni o'z she'rlarini kuylab yozardi, she'rlari musiqaday quyilib, hali siyohi qurimay qo'shiq bo'lib ketadi. She'rlarining Hammasi mag'zi butun, fikrda boy, teran va samimiy edi. Shu sababli she'rlari taniqli bastakorlar nazariga tushdi. El sevgan xonandalar ijrosida yuraklarni zabt etdi. Qo'shiqlari shunchalar samimiy va tabiiy ediki, o'z-o'zingdan xirgoyi qilib yuborganingni bilmay qolarding kishi. U chinakam Xalq shoiri mustaqillik uchun kurashgan ijodkorlardan biridir. O'zbek, millat, Vatan, ozodlik, o'zbek g'ururi, ulug' bobolarga vorislik tuyg'usi uning she'rlarida ufurib turadi. Tabiatan kam gapiradigan, ko'proq eshitadigan, o'zini bo'rttirib ko'rsatish kasalidan mutlaqo yiroq, samimiy inson edi. Shu sababdan ham hamisha she'riyat muhkislari uning atrofida parvona bo'lar edi. El- yurtning qaddu bastini yuksak, munosib so'z bilan ko'rsata bilmoq hamma shoirlarga ham nasib qilavermaydi. Taqdirning beshavqat hukmini qarangki, Andijonda chiqqan yana bir

shoiriga Zahiriddin Muhammad Bobur umrini ravo ko'rmish. U ozod, dilbar Vatanini bir farzand yanglig' sidqidildan, ko'nglini osmonlarday keng ochib kuylab o'tdi. Sham singari o'tgan qisqa umrida o'zidan so'nmas otash, yorug' iz qoldirdi. Bu otashqalb shoirning yodini ikkinchi umrini asrlarga tutashtiradi. So'zim yakunini qalb to'rimizdan o'chmas iz olgan misralari bilan yakunlasam:

Birovlar uchun birovlar tush ko'rib bermas,
Minnat qilmay bir bog' o'tin o'rib bermas.
Bayramingda oylab bazm qilgan kaslar,
Boshingga ish tushsa bir kun turib bermas.
Nomus kuyi tushmasin hech bo'g'zingdana
O'zingdan aylanay, xalqim, o'zingdana!..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida: Toshkent "Adib" 2014.
- 2 Bulbulga bir gapim bor: Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1987.
3. 8-sinf adabiyot. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Tishkent 2019